



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2024 - yil 10 - may

144-5-0-Q/24

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonining ustuvor maqsadlariga erishish, shuningdek, respublikamizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste‘mol qilishga nisbatan “immunitet”ni shakllantirish orqali genofondimizga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish, giyohvandlikka chalingan bemorlarni jahon tajribasidan kelib chiqib, tibbiy-davolanish tizimini tashkil etish sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoni bilan quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya (keyingi o‘rinlarda - Milliy strategiya) tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi (keyingi o‘rinlarda - Milliy markaz) etib qayta tashkil etilganligi inobatga olinsin.

3. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha hududiy komissiyaning (keyingi o‘rinlarda - Hududiy komissiya) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Hududiy komissiya (J. Xodjayev)ga:

milliy dasturlarning ijrosini ta’minlashga qaratilgan tuman (shahar)lar kesimida manzilli chora-tadbirlar, “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqilishi hamda har chorakda Milliy markazga qilingan ishlar yuzasidan hisobotlar kiritilishini tashkil etish, ushbu yo‘nalishda mutasaddi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

har chorakda Milliy strategiya va uni amalga oshirish bo‘yicha yillik milliy dastur ijrosining tanqidiy o‘rganilishini, belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan aniq choralar ko‘rilishini ta’minlash;

viloyatda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish, aholi orasida giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi bo‘yicha samarali chora-tadbirlarini belgilash vazifalari yuklansin.

5. Hududiy komissiya a’zolari ushbu yo‘nalishda, shu jumladan Milliy strategiya va “yo‘l xarita”larida belgilangan topshiriqlar ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hududiy komissiya mas’ul kotibiga har oyda yozma axborot kiritib borsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o‘rinbosari, hududiy komissiya raisi o‘rinbosari J. Xodjayev zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 10-maydagi
144-5-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha hududiy komissiyaning

T A R K I B I

T/r	F.I.O.	Lavozimi
1.	N. Tursunov	Viloyat hokimi, hududiy komissiya raisi
2.	J. Xodjayev	Viloyat hokimining o'rinbosari, hududiy komissiya raisi o'rinbosari
Komissiya a'zolari		
3.	M. Mamadiyarova	Viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i
4.	A. Mirzayev	Viloyat prokurori
5.	E. Urunov	Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig'i
6.	A. Allayev	Navoiy viloyat sudi raisi
7.	A. Tasbayev	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i
8.	Z. Farmonov	Viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i v.v.b.
9.	G'. Boboqulov	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i v.b.
10.	A. Rashidov	Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i
11.	N. Safoyev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i
12.	L. Xayrullayev	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i
13.	J. Murtozayev	Viloyat sport boshqarmasi boshlig'i
14.	N. Niyozov	Viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i
15.	R. Hayitova	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i
16.	G'. Aliyev	O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyat boshqarmasi boshlig'i
17.	U. Baxromov	Viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i

- | | | |
|-----|-------------|---|
| 18. | U. Sharipov | Viloyat hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhi rahbari, hududiy komissiya mas'ul kotibi |
|-----|-------------|---|

Izoh: Hududiy komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.